



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M A KTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 202 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	



O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	

DIDAKTIK O'YINLAR BOLA FAOLIYATINING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA

Egamova Madina Qobil qizi

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti
I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida yoritilgan. Shuningdek, didaktik o'yinlar bolalar dunyoqarashini kengaytirish, bilish faoliyatini tashkil etish, amaliyotda qo'llashga o'rgatish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qilishi kabi masalalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: didaktika, bola, faoliyat, vosita, o'yin, maktabgacha ta'lim, sifat.

Abstract: This article highlights the role of didactic games as the main means of child activity. It also discusses the role of didactic games in expanding children's worldview, organizing cognitive activity, teaching them to apply knowledge in practice, and developing skills and competencies.

Key words: didactics, child, activity, motor play, preschool, education, quality.

Аннотация: В статье освещается роль дидактических игр как основного средства детской активности. Также рассматривается роль дидактических игр в расширении мировоззрения детей, организации познавательной деятельности, обучении их применению знаний на практике, формировании умений и навыков.

Ключевые слова: дидактика, ребенок, деятельность, двигательная игра, дошкольное учреждение, образование, качество.

KIRISH

Inson hayoti davomida bir nechta faoliyat turlari bilan shug'ullanib boradi. Bu faoliyatlar o'yin, o'qish va mehnat faoliyati hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat turi bu – o'yindir. Bola o'yin orqali bilimlar dunyosiga ilk bor qadam bosadi. O'yin orqali o'z his-tuyg'u va kechinmalarini, fikrini, munosabatlarini ko'rsatib beradi. Mashhur rus pedagogi K.D. Ushinskiy "O'yin bola uchun voqelikdir", degan edi. O'yin – bu bola uchun real hayotning o'zi, ya'ni u o'yin orqali dunyoni anglaydi, o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi, ijtimoiy rollarni o'rganadi, muammolarni hal qiladi va o'z shaxsini shakllantiradi. Bola o'yinda o'z his-tuyg'ularini, istaklarini erkin ifoda etadi. Bu psixologik sog'lomlik uchun ham muhimdir. Abu Nasr Forobiy "O'yin bolalar tarbiyasining ajralmas qismidir. Ular o'yin orqali atrof-muhitni tushunadi, fikrlash va muomala qilishni o'rganadi", deydi. O'yin – bu oddiy ko'ngilochar mashg'ulot emas, balki bola ongining shakllanishiga xizmat qiluvchi vositadir. O'yinlarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi kabi turlarga bo'linadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Didaktik o'yinlar bolalar ta'limida muhim metodik vosita sifatida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. V.A. Sukhomlinskiy didaktik o'yinlarni bolalar tafakkurini rivojlantirishda eng samarali yo'l deb hisoblagan. Unga ko'ra, o'yin orqali o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki mustaqil fikrlashni ham o'zlashtiradi. N.A. Korotkova o'z tadqiqotlarida didaktik o'yinlar kichik yoshdagi bolalarning nutq rivoji va ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtirishini ta'kidlaydi. A.V. Zaporozhets esa o'yinda bolaning shaxsiy tajribasi boyishi, real hayotiy vaziyatlarni model-lashtirish imkoniyati yuzaga kelishini asoslagan.

Shuningdek, E.I. Nikitina didaktik o'yinlar vositasida bolalar bilimini o'zlashtirishning tezlashishi va barqarorlashishini qayd etgan. L.A. Wengerning tadqiqotlarida didaktik o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan. D.B. Elkonin o'yin faoliyatining tuzilishi va



psixologik jihatlarini o'rganib, o'yin jarayonida bola motivatsiyasi kuchayishini ko'rsatgan. G.S. Shvaikova esa o'yinni o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashda samarali metod sifatida tavsiflagan.

T.N. Doronovanning tadqiqotida o'yinlar orqali bolalar o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini tutish qoidalarini o'rganishi va bu jarayonning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. E.I. Rogov shuningdek, didaktik o'yinlar bolaning axloqiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Yuqoridagi tadqiqotlar didaktik o'yinlarning bola faoliyatini faollashtirish, bilish jarayonlarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni beqiyos ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar bilan suhbatlar, o'quv mashg'ulotlarini kuzatish hamda bolalar ishtirokidagi didaktik o'yinlar jarayonini videotasvirga olish orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili va taqqoslash usuli yordamida o'rganilib, o'yinlarning bola faoliyatiga ta'siri sifat jihatdan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Didaktik o'yinlar bolalar dunyoqarashini kengaytirish, bilish faoliyatini tashkil etish, bolalarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Didaktik o'yinlar bolalarni fikrlash jarayonini kengaytirishga bevosita xizmat qiladi. Didaktik o'yin – bu ma'lum maqsadga qaratilgan, qoidalar bilan chegaralangan, o'quv jarayonida bilim olishni o'yin shaklida tashkil etishga imkon beruvchi metod hisoblanadi. U nafaqat o'quvchilarning bilimini oshirishga, balki ularda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlarning turlari turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ulardan foydalanish darsning maqsadi, mazmuni va bosqichiga bog'liq. Asosiy turlaridan ayrimlarini ko'rib chiqamiz. Ma'lumotli o'yinlar – bu o'yinlar bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, viktorinalar, jumboqlar yoki savol-javob o'yinlari. Rolli o'yinlarda o'quvchilar muayyan rollarni bajarish orqali o'rganayotgan mavzuni chuqurroq tushunadilar. Masalan, tarixiy voqealarni sahnalashtirish. Mantiqiy o'yinlar mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib, masalan, krossvordlar, topishmoqlarni o'z ichiga oladi. Harakatli o'yinlar ayniqsa boshlang'ich sinflarda qo'llanilib, jismoniy faollik bilan birga bilim berishni maqsad qiladi.

Ma'lumotli o'yinlar haqida gap yuritadigan bo'lsak, ular o'quvchilarning mavjud bilimlarini mustahkamlash va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga yordam beradigan didaktik o'yinlarning bir turidir. Bu turdagi o'yinlar, odatda, savol-javoblar, viktorinalar, jumboqlar yoki ma'lumotlarni sinashga qaratilgan topshiriqlar orqali tashkil etiladi. Ma'lumotli o'yinlar quyidagi afzalliklarga ega. Qiziqarli o'qitish – ushbu o'yinlar dars jarayonini jonlantirib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Mustahkamlash – ma'lumotli o'yinlar orqali o'quvchilar o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, til o'rgatishda so'z boyligini oshirish uchun so'z o'yinlari, matematikada esa sonli masalalarni yechish orqali bilganlarini mustahkamlash mumkin. O'yin jarayonida bilimlar qayta tiklanadi va ko'nikmalar rivojlanadi.

Ko'p sonli ishtirokchilarni jalb qilish – guruhli yoki jamoaviy o'yinlar barcha o'quvchilarni jarayonga jalb etish uchun samarali usuldir. Bu usul o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, birgalikda muammolarni hal qilishga va bir-birlaridan o'rganishga imkon yaratadi. Masalan, "Javobni top" o'yini yoki "Jamoaviy viktorina" kabi mashqlar guruhni birlashtirishda foydalidir. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish – jumboqlar, savol-javoblar va masalalar yordamida o'quvchilar o'z mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Masalan, matematik mantiq jumboqlari yoki algoritmlarni tuzishga qaratilgan mashqlar orqali bolalar analitik fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin. Bu o'yinlar nafaqat bilimlarni, balki muammoni hal qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Masalan, "Kim tezroq javob beradi?" nomli o'yin o'quvchilarga mavzu bo'yicha savollar berib, ularning tez va aniq javob berish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, tarixiy mavzularda "Tarixiy sanalarni toping" kabi viktorinalar o'quvchilarning faktlarni eslab qolish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu o'yinlar ta'limning ko'plab sohalarida, xususan, til o'rganish, matematika va tarix fanlarida muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Didaktik o'yinlarning ahamiyati shundaki, ular o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otib, ularni dars jarayonida faol qatnashishga undaydi. O'yin davomida o'quvchilar mavzuni qiziqarli shaklda o'zlashtiradilar va o'z bilimlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, til o'rgatishda "So'z topish" o'yini yoki matematikada "Savol-javob" mashqlari qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi.

Bilimlarni mustahkamlash ham muhim ahamiyatga ega. O'yin shaklidagi topshiriqlar orqali o'quvchilar darsda olgan bilimlarini takrorlaydilar va amaliyotda qo'llaydilar. Bunday o'yinlar bilimlarning mustahkamlanishiga, ular orasidagi bog'lanishlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, tarix fanida viktorinalar yoki kimyo fanida tajribalar orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ham didaktik o'yinlarning muhim vazifalaridan biridir. Didaktik o'yinlar o'quvchilarga muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni taklif qilish va ularni amalga oshirishda ijodkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, "Rol o'yinlari" yoki "Muammo hal qilish" mashqlari ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasini shakllantirish ham dolzarbdir. Didaktik o'yinlarning ko'pchiligi guruhda amalga oshirilgani sababli, o'quvchilar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni, fikr almashishni va o'zaro hurmat qilishni o'rganadilar. Masalan, "Jamoa bilan yechim topish" o'yini orqali hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Bu ko'nikmalar nafaqat darsda, balki hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarni qo'llash bo'yicha quyidagi tavsiyalar mavjud:

Birinchidan, dars mavzusiga mos o'yin tanlash zarur. O'yin dars mazmuniga mos bo'lishi va belgilangan maqsadga xizmat qilishi lozim. Masalan, matematikaga oid mavzuda matematik masalalarni yechishga mo'ljallangan o'yin tanlash samaradorlikni oshiradi.

Ikkinchidan, oddiy qoidalarni belgilash kerak. O'yin qoidalari o'quvchilarga tushunarli va sodda bo'lishi lozim. Murakkab qoidalar o'quvchilarning qiziqishini pasaytirishi va vaqtni behuda sarflashga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'yin boshlanishidan oldin qoidalar aniq tushuntirilishi lozim.

Uchinchidan, faoliyatni muvozanatlashtirish muhim. O'yin davomida barcha o'quvchilar teng ishtirok etishi ta'minlanishi kerak. Guruhdagi barcha ishtirokchilarni jarayonga jalb qilish uchun rollarni teng taqsimlash muhim. Masalan, "Savol-javob" o'yinida savollarni navbat bilan berish orqali har bir o'quvchi qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, tahlil va baholash jarayoni zarur. O'yin yakunida natijalar muhokama qilinib, xulosa chiqarilishi lozim. Bu jarayon o'quvchilarning o'z xatolarini tahlil qilishlari, ulardan saboq olishlari va kelgusida yaxshiroq natijalarga erishishlariga yordam beradi.

Beshinchidan, o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish kerak. Har bir o'quvchi individual xususiyatlarga ega. Didaktik o'yinlarni tanlash va o'tkazishda o'quvchilarning yoshiga, bilim darajasiga va qiziqishlariga mos keladigan usullarni qo'llash zarur. Masalan, kichik sinf o'quvchilari uchun ko'proq vizual va interaktiv elementlarga boy o'yinlar samarali bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilari uchun analitik va muammolarni hal qilishga asoslangan o'yinlar foydalidir.

Oltinchidan, vaqtni samarali taqsimlashga e'tibor qaratish lozim. Didaktik o'yinlar dars vaqtining muayyan qismini egallashi kerak. O'yin davomida asosiy maqsad – mavzuni o'zlashtirish ekanligini unutmaslik lozim. Shuning uchun o'yin uchun belgilangan vaqtni aniq belgilash va uni nazorat qilish muhimdir. Masalan, qisqa vaqtga mo'ljallangan "Blits-so'rov" yoki "Tezlikka javob ber" kabi o'yinlar darsning asosiy qismini buzmaydi.

Yettinchidan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish samarali bo'ladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari o'yin jarayonini yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. Masalan, interaktiv doska, mobil ilovalar yoki onlayn platformalarda o'tkaziladigan o'yinlar orqali darslar qiziqarliroq bo'ladi. Masalan, matematik masalalarni hal qilish uchun "Kahoot!" yoki "Quizizz" kabi platformalar juda samarali.

Sakkizinchidan, o'quvchilarni rag'batlantirish lozim. Didaktik o'yinlar davomida rag'batlantirish vositalaridan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. G'oliblarni maqtash, ularga kichik sovg'alar yoki baholar berish motivatsiyani kuchaytiradi. Rag'batlantirish natijasida o'quvchilarda yanada faol ishtirok etish istagi paydo bo'ladi.

Ushbu tavsiyalar orqali didaktik o'yinlarni samarali o'tkazish va ta'lim sifatini oshirish mumkin. O'qituvchilar mazkur usullardan foydalanib, o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradilar va ta'lim jarayonining qiziqarli bo'lishini ta'minlaydilar. Didaktik o'yinlarni ta'limda kengroq qo'llash va ularni turli fanlar bo'yicha moslashtirish zarur. Bu o'quvchilarning nafaqat bilimi, balki qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Didaktik o'yinda o'quvchi qoidalarga rioya qilishga o'rganadi, chunki qoidalarga rioya qilish o'yin muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'yinda qatnashish jarayonida ijobiy xulqiy sifatlar va tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi. Foydalanilgan material turlariga qarab ham didaktik o'yinlarni uch turga ajratish mumkin: predmetli o'yinlar, stol ustida o'ynaladigan o'yinlar va so'zlar vositasida o'ynaladigan og'zaki o'yinlar.

Predmetli o'yinlar – xalq didaktik o'yinchoqlari yoki turli tabiiy mozaika materiallari yordamida o'ynaladigan o'yinlardir. Bular yordamida o'qituvchi o'yin turlarini belgilaydi. Masalan, tabiiy materiallar bo'laklaridan butun



manzarani hosil qilish. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar esa atrof-muhit haqidagi tasavvurlarning kengayishiga, o'quvchilarda bilimga qiziqish uyg'otishga, tafakkur jarayonlarini (analiz, sintez, umimlashtirish, tasniflash va boshqalar) rivojlantirishga xizmat qiladi. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlarning bir necha turlari mavjud: o'xshash suratlar, loto, domino, kesma suratlar, taxlama kubiklar.

So'zlar vositasida o'ynaladigan og'zaki o'yinlar ham muhim o'rin tutadi. Bu o'yinlar guruhiga juda ko'plab xalq o'yinlari kiradi, masalan: "Zanjir", "Noto'g'ri jumla", "Bo'lishi mumkin emas", "Tez aytish", "Topishmoqlar", "Aytishuvlar" va shu kabi og'zaki nutq bilan bog'liq o'yinlar. Bunday o'yinlar diqqatni, xotirani rivojlantiradi, o'quvchilarni fikrlarini to'plashga, tez fikrlashga, bog'lanishli nutqqa va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Shunday qilib, bola hayotining ajralmas va asosiy faoliyati bo'lgan didaktik o'yinlar bolani ong'li va mustaqil fikrlashga, dunyoviy bilimlarni egallashga hamda so'z erkinligiga ega bo'lishiga yordam beradi va uning fikrlash doirasini kengaytiradi. Bolalar uchun didaktik o'yinlarni samarali o'tkazish, bolaning maktab ta'limiga tayyorlanishida muhim vosita hisoblanadi. Tarbiyachilar tomonidan o'tkazilgan didaktik o'yinlar bolaning kelajakda kasblarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ham muhim omil bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent, 2022-yil. – 20 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzliksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori.
3. Qurbonova D. O'yin texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari // Maktabgacha ta'lim jurnali, 2020-yil, 6-son.
4. Abdullayev F. Pedagogikada didaktik o'yinlar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2012. – 220 b.
5. В.А. Сухомлинский. "Разговор с молодым директором школы". – М.: Педагогика, 1979. – 447 с.
6. Н.А. Короткова. "Дидактические игры для детей". – М.: Академия, 2006. – 192 с.
7. А.В. Запорожец. "Развитие движений у детей". – М.: Педагогика, 1986. – 256 с.
8. Е.И. Никитина. "Дидактическая игра как средство развития речи". – М.: Просвещение, 2000. – 160 с.
9. Davlatov A. Didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi o'rni. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 180 b.
10. Ko'chkarov B. Ta'lim metodikasi va didaktik o'yinlar. – Toshkent: Akademiya, 2017. – 175 b.
11. Karimova G. Didaktik o'yinlar: bolalar tarbiyasidagi o'rni. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 160 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.